




BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Omonova Farangiz Rustam qizi.

Qarshi davlat universiteti

Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22725115>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 3-sentabr 2026 yil
Ma'qullandi: 5-sentabr 2026 yil
Nashr qilindi: 12-sentabr 2026 yil

KEY WORDS

tanqidiy fikrlash, bilim, ko'nikma, metod, ta'lim, rivojlanish, faoliyat,

boshlang'ich ta'lim, mustaqil fikrlash, muammoli savollar.

ABSTRACT

Ushbu ilmiy maqolada boshlang'ich ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik mulohazalar, tanqidiy fikrlashning mohiyati haqida so'z boradi. Tanqidiy fikrlash bolalarda muammolarni hal qilish, mustaqil fikr yuritish va muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada muammoli savollar berish, bahs va munozaralar tashkil etish, ijodiy topshiriqlar hamda o'qituvchi rolga alohida e'tibor qaratilgan. O'qituvchilarga tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun turli innovatsion metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. O'quvchilarda tanqidiy fikrlashlarini shakllantirishda ularning obyektiv va hissiy bilish imkoniyatlarini rivojlantirish bilan birga didaktik topshiriqlar majmui, maxsus metodikalar, o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Kirish

Hozirgi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq dolzarb muammolarni hal etish mustaqil fikrlash va tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lgan yangi avlodga bog'liq. Biz vaziyatga qarab o'zgarib turadigan fikrni tasavvur qilamiz. Bola ma'lum bir vaziyatga tushib qoladi va u darhol ma'lumotni kuzatishni, tahlil qilishni, qayta ishlashni, xulosalar chiqarishni, qaror qabul qilishni, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishni boshlaydi. Tanqidiy fikrlash – bu narsa va hodisalarni oqilona xulosalar bilan tahlil qilishda qo'llaniladigan va oqilona baholash va talqin qilish, shuningdek, olingan natijalarni vaziyat va muammolarga qo'llash imkonini beradigan fikrlash tizimi. Tanqidiy fikrlash – bu nimaga ishonish yoki qanday harakat qilish kerak, nima qilish kerakligi to'g'risida qaror qabul qilishga qaratilgan samarali, aks ettiruvchi fikrlash. Bundan tashqari, tanqidiy fikrlash – bu o'rganilayotgan ma'lumotlarga, shu jumladan o'z hukmlariga shubha qilish qobiliyati. Fikrlash haqida o'ylash nomi bilan ham tanilgan. Eng keng tarqalgan ta'riflardan biri bu nimaga ishonish va nima qilish kerakligini hal qilishga qaratilgan ratsional reflektiv fikrlash, faol va mohirona tahlil qilish, kuzatish, tajriba, aloqa natijasida olingan yoki hosil bo'lgan ma'lumotlarni ishonch va harakat uchun maqsadli nuqta sifatida konsepsiyalashdir[1]. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning muhim jihatlaridan biri – o'quvchilarda savol berish madaniyatini shakllantirishdir. Savol bera olgan o'quvchi fikrlay oladi, tahlil qiladi va bilimga nisbatan ongli

munosabatda bo'ladi. Boshlang'ich sinfda o'qituvchi tomonidan beriladigan ochiq turdagi savollar, muammoli topshiriqlar hamda bahs-munozaraga asoslangan mashg'ulotlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Bunday yondashuv o'quvchilarning faolligini oshirib, dars jarayonini qiziqarli va mazmunli qiladi [2-2-b]. Bolalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun o'qituvchi o'quvchilarning fanlar bo'yicha individual xususiyatlarining raqamli ko'rsatkichlarini aniq tasavvur etgan taqdirdagina ushbu pedagogik jarayonni obyektiv tasvirlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda pedagogik diagnostikadagi shkalalar va solishtirish metodlaridan o'rinli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi [3]. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida, ayniqsa, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Boshlang'ich ta'lim shaxs kamolotining eng muhim bosqichi hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning dunyoqarashi, bilish faoliyati, fikrlash uslubi va o'rganishga bo'lgan munosabati shakllanadi. Agar ushbu bosqichda o'quvchi faqat tayyor bilimlarni yod olishga o'rgatilsa, u keyingi ta'lim bosqichlarida mustaqil fikr yuritishda qiyinchiliklarga duch keladi. Shu sababli boshlang'ich sinflardan o'quvchilarni fikrlashga undash, savol berishga o'rgatish hamda o'z fikrini asoslab bera olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi [2-81-b].

Asosiy qism

Bolalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun o'qituvchi o'quvchilarning fanlar bo'yicha individual xususiyatlarining raqamli ko'rsatkichlarini aniq tasavvur etgan taqdirdagina ushbu pedagogik jarayonni obyektiv tasvirlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda pedagogik diagnostikadagi shkalalar va solishtirish metodlaridan o'rinli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Tanqidiy fikrlash nima ekanligini yanada aniqroq aniqlash uchun Richard Pol (1995) tanqidiy fikrlashni kuchli va zaif turlarga bo'lishni taklif qildi. U zaif tanqidiy fikrlashni o'z harakatlarining axloqiy oqibatlarini jiddiy ko'rib chiqmaydigan yuqori malakali, ammo o'zini qiziqtirgan psevdointellektualning xudbinlik bilan fikrlashi deb ta'riflaydi. Bunday fikrga ega odamlar ko'pincha yuqori ma'lumotli, ammo o'z bilimlaridan adolatsiz va xudbin maqsadlarga erishish uchun foydalanadilar. Bundan tashqari, tanqidiy fikrlash mantiqiy xulosalar qurish, izchil mantiqiy modellarni yaratish va hukmni rad etish, rozi bo'lish yoki vaqtincha kechiktirish bilan bog'liq ongli qarorlar qabul qilish bilan tavsiflanadi. Ushbu ta'riflarning barchasi ma'lum bir kognitiv vazifani hal qilishga yo'naltirilishi kerak bo'lgan aqliy faoliyatni anglatadi. Tanqidiy fikrlash uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalarga kuzatish, talqin qilish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va baholash kiradi [4]. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Bu yoshdagi bolalarda tafakkur asosan ko'rgazmali-obrazli xarakterga ega bo'lib, mantiqiy fikrlash asta-sekin rivojlanib boradi. Shu bois o'qituvchi dars jarayonida ko'rgazmali vositalar, o'yin elementlari, hayotiy misollar va muammoli vaziyatlardan keng foydalanishi zarur. Ushbu usullar o'quvchilarda fikrlash jarayonini faollashtirib, ularni mustaqil xulosa chiqarishga undaydi [2-1-2-b].

Boshlang'ich ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

Muammoga yo'naltirilgan o'qitish (Problem-Based Learning, PBL) – o'quvchilar real hayotiy yoki nazariy muammolarni hal qilish orqali bilimni amaliyotda qo'llashni o'rganadi, mantiqiy tahlil va qaror qabul qilish qobiliyatlari rivojlanadi.

Diskussiya va debat metodlari – o'quvchilar fikr almashish, qarama-qarshi nuqtai nazarlarni tahlil qilish va asosli argumentlar keltirish orqali tanqidiy fikrlashni amaliyotda qo'llashni o'rganadilar.

Reflektiv metodlar – o'quvchilar o'z fikr va xatti-harakatlarini tahlil qilib, xatolarini aniqlash va yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Qolaversa, baholash tizimi tanqidiy fikrlashni rag'batlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. An'anaviy test va imtihonlar faqat faktlarni eslab qolishni o'lchasa, tanqidiy fikrlashni baholashda o'quvchilarning tahliliy va ijodiy qobiliyatlari, argumentatsiya va qaror qabul qilish ko'nikmalari hisobga olinadi. Masalan, case-study ishlari, portfoliolar, loyiha ishlari va og'zaki prezentatsiyalar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash darajasini aniqlashda samarali vositalar hisoblanadi. Shuningdek, pedagogik jarayonda o'quvchilarni faol o'rganishga jalb qilish, ularning motivatsiyasini oshirish, o'z fikrini ifodalash va konstruktiv tanqidni qabul qilish qobiliyatini shakllantirish muhimdir. Bu esa o'z navbatida tanqidiy fikrlashning ijtimoiy komponentini rivojlantiradi va o'quvchilarni murakkab ijtimoiy va kasbiy vaziyatlarda samarali harakat qilishga tayyorlaydi. Natijada, pedagogik nuqtai nazardan tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o'quv jarayonining mazmuni, metodlari va baholash tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon o'quvchilarning mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil, qaror qabul qilish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi[5]. O'quvchilarda tanqidiy fikrlashning shakllanganlik darajasini tashxislashda kuzatish metodi muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatish metodi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning dunyoqarashi, aqliy rivojlanishi, fikr yuritish dinamikasi, xulosalar chiqarishdagi mustaqil fikr bayon qilishi, faol nuqtayi nazarini o'rganish va tahlil qilishga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faol darajada tanqidiy fikrlashlari ularning asab tizimlaridagi qo'zg'alishlariga ham bog'liqdir.

U quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Fikr ifodalash jarayonida o'zlari duch keladigan qiyinchiliklarni bartaraf eta olishlari;

Maqsadga erishish yo'lida qat'iylik ko'rsatishlari;

O'z o'quv faoliyatlari davomida intensivlik va mahsuldorlikni saqlab qolgan holda, uzoq muddat mobaynida u darajada qiziqarli bo'lmagan topshiriqlarni bajara olishlari;

Turli o'quv vaziyatlarida mahsuldor faoliyat ko'rsatib, qat'iy fikr ifodalay olishlari;

Muloqot va munozaralar davomida mustaqillikka intilishlari;

Yangi o'quv vaziyatlarida o'zlarining notanish, kashf qilinmagan qirralarini namoyon qila olishlari kabilar[3-4-b].

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish zamonaviy ta'limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatadi va kelajakda ongli, mas'uliyatli hamda raqobatbardosh shaxs bo'lib shakllanishlariga mustahkam asos yaratadi. Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metod va texnologiyalardan samarali foydalanish bugungi kun ta'limining eng dolzarb masalalaridan bir. Agar erkinlik va bilim bo'lmasa, tanqidiy fikrlash bo'lmaydi. Har qanday jamiyat tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bilimli avlodga muhtoj. Tanqidiy fikrlash kashfiyotlarning asosi, innovatsiyalarning asosiy omili va ijtimoiy rivojlanishning ustunidir. Tanqidiy fikrlash boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun kelajakda muvaffaqiyatli shaxs bo'lish sari muhim qadamdir. Bu ko'nikmalarni shakllantirish uchun o'qituvchi faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, bolalarning fikrlash jarayonini faollashtiruvchi turli usullarni qo'llashi lozim. Tanqidiy fikrlashga ega bo'lgan o'quvchilar kelajakda mustaqil, ijodkor va muvaffaqiyatli shaxslarga aylanishlari muqarrar.

Takliflar

Yuqorida keltirilgan muammolar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

1. Tanqidiy fikrlashni turli yo'llar bilan belgilash mumkin bo'lsada, uning asosiy tarkibiy qismi qoniqarli natijaga erishish istagi haqida umumiy kelishuv mavjud va bunga oqilona fikrlash va natijalarga yo'naltirilgan ish orqali erishish kerak.
2. O'quvchilar o'ziga ishonchni orttirish va o'z fikri hamda g'oyalarning kadrini tushunishi, o'quv jarayonida faol ishtirok etishi, turlicha fikrlarni e'tibor bilan tinglashi, o'z hukmlarini shakllantirishi lozim. O'quvchi-yoshlarni tanqidiy fikrlashga o'tgatish maqsadida o'qituvchi o'quv mashg'ulot jarayonida rang-barang fikrlar, faollik, tavakkalchilik, fikrlarni kadrlash, fikrlarning qimmatligi, o'zaro fikr almashinuv, tanqidiy fikrlarni ta'minlovchi savollarga ustuvorlik berishi lozim.
3. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun maxsus trening va seminarlar tashkil qilish. Tanqidiy fikrlash metodlarini samarali qo'llash bo'yicha o'qituvchilarni tayyorlash muhim. O'quv dasturlariga tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni kiritish. Darsliklar va metodik qo'llanmalarga muammoli savollar, bahsli mavzular va muhokama asosida yechim topish topshiriqlari ko'proq kiritilishi kerak va lozim.
4. Qolaversa, bolalarga erkinlik va mustaqillikni rivojlantirish ham o'z navbatida tanqidiy fikrlashni rivojlanishiga sababchi bo'ladi. O'quvchi o'rgangan bilmini erkin va mustaqil tafakkur qila olsa, unda yangi fikr yuzaga keladi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda darsdan so'ng bolalarni mustaqil shug'ullantirish keng samara beradigan usullardan hisoblanadi. Dars jarayonida ham unga berilgan erkinlik uning shaxsiy fikrini ifoda etishiga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida tanqidiy fikrlashni rivojlanishiga ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sharofova F. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish Yangi O'zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2025. – 2-jild, 5-son. – B. 88–91. DOI: 10.5281/zenodo.15412447 . <https://in-academy.uz/index.php/yoitj/article/view/51725/32845>
2. Sharofova F.Q. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish // Maktabgacha va maktab ta'limi (School Education). – 2026. – 1-son (yanvar). ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-9910-8745>
3. Qodirov R.K. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tanqidiy fikrlashga o'rgatishga maxsus tayyorlash zaruriyati // Maktab ta'limi / Shkolnoye obrazovaniye. – 2022. – 8-son. DOI: https://doi.org/10.34920/SO/VOL_2022_ISSUE_8_7
4. Maxammatova M.J. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish intellektual qobiliyatni oshirishning asosidir // Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2024. – 4-jild, 2-son (fevral). ISSN: 2181-2624
5. Ma'murova Sh.D. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy asoslari // Central Asian Journal of Education and Innovation. – 2025. – 4-jild, 11-son (noyabr). DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17577559>